

TALABALARDA OMMAVIY SPORT TADBIRLARINI TASHKIL QILISH VA O‘TKAZISH

Anorqulov Baxtiyor Norqul o‘g‘li
baxtiyoranorqulov94@gmail.com

Guliston davlat universiteti

Sport turlarini o‘qitish uslubiyati kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi

Raximberdiyev Ummatali

Guliston davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20663088>

Annotatsiya

Talabalarda ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilish va o‘tkazish kompetentsiyasini rivojlantirishga qo‘yiladigan talablarni mazmuni, innovatsion – tizimli yondashuvlar asosida kengaytirish hamda tizim tasnifini rivojlantirish asosida modelni ishlab chiqish. Talabalarda ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilish va o‘tkazish kompetentsiyasini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish. Talabalarda ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilish va o‘tkazish kompetentsiyasini rivojlantirishni mavjud holatini o‘rganish, hamda tizimi, mazmuni, shart-sharoitlari, omillari, vositalarini kengaytirish.

Kalit so‘zlar: Sport, tadbir, ommaviy, kompetensiya, talabalar, holat, rivojlantirish, kengaytirish, tavsiyalar, o‘yinlar, modellash, tizim.

Abstract

Development of a model based on the expansion of the content of the requirements for the development of the competence of organizing and conducting public sports events in students, innovative-systemic approaches and the development of system classification. Scientific conclusion on the development of the competence of organizing and conducting public sports events in students and development of recommendations. To study the current state of developing the competence of organizing and holding public sports events among students, and to expand the system, content, conditions, factors, and tools.

Key words: Sports, event, public, competence, students, status, development, expansion, recommendations, games, modeling, system.

Абстрактный

Разработка модели на основе расширения содержания требований к развитию компетентности организации и проведения массовых спортивных мероприятий у студентов, инновационно-системных подходов и разработки системной классификации. организация и проведение массовых спортивных мероприятий у студентов и разработка рекомендаций. Изучить современное состояние формирования компетенции организации и проведения массовых спортивных мероприятий у студентов, а также расширить систему, содержание, условия, факторы и инструменты.

Ключевые слова: Спорт, событие, публика, компетентность, студенты, статус, развитие, расширение, рекомендации, игры, моделирование, система.

KIRISH

Hozirgi kunda talabalarda ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilishga qaratilgan e‘tibor kundan-kun sayin ortib bormoqda, bunga O‘zbekiston respublikasini prezidentining qarorlari ham bu gaplarni isboti hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-

tadbirlari to'g'risidagi qarori, mahallalarda ommaviy sportni rivojlantirishni taklif qilishi bunga isbot bo'la oladi deb aytishimiz mumkin.

Globallashib borayotgan hozirgi davrda dunyoda sport davlatlarning rivojlanishi va xalqaro miqyosda milliy nufuzini oshirishda yetakchi omillardan biri sanaladi. Jismoniy madaniyat kishilar salomatligida muhim o'rin tutib, ishlab chiqarish va mehnat unumdorligini ta'minlaydi. Jahonda yuz berayotgan madaniy o'zgarishlar, sanoatlashish va urbanizatsiya jarayonlari sportning o'sishini ta'minlovchi faktorlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda ko'pgina rivojlangan davlatlar jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish yuzasidan o'zlarining strategiyalarini ishlab chiqmoqda. Ayniqsa, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi va xalqaro sport tashkiloti (FIFA) tomonidan rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda sportni rivojlantirish yuzasidan izchil tadbirlar olib borilmoqda. Xususan, aholi salomatligini muhofaza qilishda jismoniy tarbiyaning rolini oshirish, sport turlari bo'yicha musobaqa o'tqazish va hakamlik qilish kompetentsiyalarini rivojlantirish, sport o'yinlari metodikasini standartlash, tizimli sport musobaqalarini tashkil etish kabilar shular jumlasidandir.

Dunyoning AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Braziliya va Yaponiya kabi mamlakatlarining ilmiy tadqiqot markazlari va universitetlarida jismoniy tarbiyaning inson salomatligidagi o'rni, aholi orasida sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yishda sport turlaridan keng foydalanish, sport musobaqalarini tashkil etish va musobaqa shartlarini me'yorlashtirish, xalqaro sport musobaqalarini tashkil etish va ularda ishtirok etuvchi davlatlar safini kengaytirish, jismoniy tarbiya va sport yo'nalishida kadrlar tayyorlash, sport turlari bo'yicha musobaqa o'tqazish va hakamlik qilish kompetentsiyalarini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining “2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da mamlakatda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha alohida yo'nalishlar belgilangan: **67-maqсад**–Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan fuqarolarning sonini oshirish. Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan aholi sonini 2026-yilda 33 foizga chiqarish, **68-maqсад**–Olimpiya va Paralimpiya harakatini rivojlantirish. Olimpiya o'yinlariga kiritilgan jamoaviy (futbol, gandbol, basketbol, voleybol, regbi, chim ustida xokkey, suv sporti turlari) va boshqa sport turlarini rivojlantirish. Xususan, O'zbekiston Respublikasida ushbu sohani rivojlantirish maqsadida 2022-yil 11-apreldagi “Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-201, 2020-yil 30-oktyabrdagi “Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PF-6099, 2020-yil 24-yanvardagi “O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5924, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-fevraldagi “2019-2023-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 118-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-yanvardagi “Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari xodimlarining jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, 2018-yil 5-martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5368, 2017-yil 3-iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3031, 2015-yil 4-sentyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida”gi O'zbekiston respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi Qonun, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda

belgilangan vazifalarni amalga oshirishga, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Bugungi kunda respublikamizda jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash muammosi bo'yicha ko'plab olimlar, oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Mazkur muammoni o'rganish va ilmiy tahlil etish natijasida biz bir qator uslubiy ishlanmalar, ilmiy adabiyotlar, risolalar va fan nomzodlik, dissertatsiyalar bilan tanishib chiqdik. Bu jarayonda shu narsa ma'lum bo'ldiki, qo'yilgan muammoni pedagogik, psixologik, ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan maxsus o'rganib chiqishga va kerakli xulosalar berishga erishilgan, bu borada talaygina ishlar amalga oshirilgan. K.D.Yarashov, D.B.Yadgarov, N.A.Xudayberdiyeva, A.A.Meliziyyev, B.O'Turg'unov, O.O.Oripov, Sh.E.Boltayev, M.E.Choriyeva, V.V.Mahmudov, Sh.X.Kojbaxteyev, T.R.Zakirov, L.Y.Petrova, S.V.Kuzminix, N.G.Sokolov, I.Y.Artemov, S.S.Jilin, N.A.Borovkov, H.Z.Gapparov, H.R.Akhmedov, O.Y.Brovashova, A.N.Korban, I.G.Klepikov, Y.S.Barazgova, L.S.Aristov, A.S.Larin, P.A.Ganin, Y.N.Allyanov, Z.X.Nizametdinova, Y.Polishkene, I.S.Xrikov, A.A.Bolozin, P.V.Vavilov, M.A.Tanina, I.A.Yurasov, V.V.Bondarenko, S.A.Barbashova, Y.Y.Shevtsova, A.O.Yegorichev, I.M.Butin, A.A.Popova, M.I.Sentizova, A.B.Guryeva, A.S.Starostina, J.X.Adambayev, N.M.Osmonbekova, I.Y.Krosnorutskiy, N.V.Antonov, A.K.Vladiko, R.O.Shakirov, Y.A.Shakirova, V.V.Ponomarev, D.T.Mamirova, V.I.Stolyarov, kabi O'zbekiston hamda xorijiy mamlakatlar pedagog-olimlari tomonidan tadqiq qilingan.

Talabalarda ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilish va o'tkazish kompetentsiyasini rivojlantirish jarayonidan iborat.

Tadqiqotning predmeti talabalarda ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilish va o'tkazish kompetentsiyasini rivojlantirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsadi talabalarda ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilish va o'tkazish kompetentsiyasini rivojlantirish bo'yicha xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

Talabalarda ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilish va o'tkazish kompetentsiyasini rivojlantirishni mavjud holatini o'rganish, hamda tizimi, mazmuni, shart-sharoitlari, omillari, vositalarini kengaytirish;

Talabalarda ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilish va o'tkazish kompetentsiyasini rivojlantirish mazmunini kengaytirish orqali yetakchi pritsiplar, metodlar, mezonlarni aniqlashtirish;

Talabalarda ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilish va o'tkazish kompetentsiyasini rivojlantirishga qo'yiladigan talablarni mazmuni, innovatsion – tizimli yondashuvlar asosida kengaytirish hamda tizim tasnifini rivojlantirish asosida modelni ishlab chiqish;

Talabalarda ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilish va o'tkazish kompetentsiyasini rivojlantirish bo'yicha ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

Talabalarda ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilish va o'tkazish kompetentsiyasini rivojlantirishni mavjud holatini o'rganish, hamda tizimi, mazmuni, shart-sharoitlari, omillari, vositalarini kengaytirilsa;

Talabalarda ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilish va o'tkazish kompetentsiyasini rivojlantirish mazmunini kengaytirish orqali yetakchi pritsiplar, metodlar, mezonlar aniqlashtirilsa;

Talabalarda ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilish va o'tkazish kompetentsiyasini rivojlantirishga qo'yiladigan talablarni mazmuni, innovatsion – tizimli yondashuvlar asosida kengaytirish hamda tizim tasnifini rivojlantirish asosida model ishlab chiqilsa;

Talabalarda ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilish va o'tkazish kompetentsiyasini rivojlantirishga oid ilmiy xulosa va tavsiyalar berilsa, ish samarali natija beradi.

Tadqiqot metodologik bazasining ta'minlanganligi, pedagogik ta'lim sohasidagi respublika va xorijiy davlatlar tadqiqotchilari, shuningdek, amaliyotchilarning ishlariga asoslanganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi darajasi turli metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishning mazmun-mohiyati ochib berilganligi, tizimni takomillashtirish bo'yicha mezon va ko'rsatkichlarining aniqlashtirilganligi, roli va ishbilarmonlik texnologiyalar vositasida rivojlantirishning mazmuni yoritib berilganligi, oliy ta'lim muassasalarida ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish tizimining takomillashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish tizimining ahamiyati empirik asoslanganligi, tizimni takomillashtirish bo'yicha modelning ishlab chiqilganligi, jismoniy tarbiya va pedagogika fanlarining talabalarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlarining yoritib berilganligi, ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish jarayonining takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida ||gi PQ-3031-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida || 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-sonli farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-apreldagi Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-201-son qarori.
4. Abdullayev F.T. Ommaviy jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish ishlarini tizimli tashkil etish [Mant]: o'quv qo'llanma / F.T. Abdullayev Toshkent: Umid Design ||, 2021. – 124 b.
5. Abdullayev F.T., Amanov A.N., Djurayev U. Ommaviy sport sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish [Matn]: uslubiy qo'llanma / F.Abdullayev, A.Amanov, U.DJurayev.-T.: 2022. -110 b.
6. Anorqulov B.N (2024) “Harakatli o'yinlar asosida 9-10 yoshli o'quvchilarning jismoniy sifat samaradorligini oshirish” 393-397 b